

---

**TOG‘AY MUROD HIKOYALARIDA SURXON QISHLOQ HAYOTI**

---

**Temirova Nazira Akbayevna**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent  
davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti  
Surxondaryo bo‘linmasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada Surxon vohasining tanti va jo‘mard oddiy qishloq aholisining turmush tarzi, oilaviy munosabatlari, xarakteri ochib berilgan. Tog‘ay Murod hikoyalari badiiy talqin qilish hamda Surxon vohasining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish maqsad qilingan.

**Abstract:** The article reveals the lifestyle, family relationships, and character of the noble and generous villagers of the Surkhan oasis. The aim is to artistically interpret the stories of Togay Murad and study the unique aspects of the Surkhan oasis.

**Tayanch so‘zlar:** hikoyalar, o‘zbek ayoli, oila, milliylik, qadriyat, portret, peyzaj, xarakter.

**Keywords:** stories, Uzbek woman, family, nationality, value, portrait, landscape, character.

Adabiyotimizning nasrdagi zabardast vakili Tog‘ay Murod asarlarida ham inson va tabiat, inson va jonzodlar munosabatini ko‘rish mumkin. Garchi bu yozuvchining hikoyalari unchalik mashhur bo‘lmasa-da, biroq keyinchalik yozilgan qissa va romanlariga debocha vazifasini bajargan. Asarlaridagi soddalik va to‘porilik barcha janrdagi qahramonlarini birlashtirib turadi. Tog‘ay Murodning asarlarini muallifini bilmasdan o‘qib ham kimning asari ekanligini bilib olish mumkin. Uning “Bobosi bilan nevara”, “Ku-ku-ku”, “Er-xotin”, “Kuzning bir kunida” kabi hikoyalari barchasida oddiy qishloq hayoti yoritib berilgan. “Er-xotin” hikoyasida O‘rolboy ismli shoir yigitning soddagina turmushi ochib berildi. U o‘ttizga kirib mayda asarlar bilan o‘ralashib qolib, o‘zining haligacha shoh asari yo‘qligi haqida o‘ylab qoladi va o‘ziga qishlog‘idagi tikuvchi qiz Barchinoyini tanlaydi. Ular bir-biriga nisbatan ko‘nglida hech narsani his etmadi, biroq O‘rolboy: «Hayotda juft bo‘lib yashash kerak ekan, ilojimiz qancha», – dedi-yu jimgina yashay boshladi. Bu soxta turmush bir kuni o‘z asoratini ko‘rsatdi. Ular bitta farzandli bo‘lgach, Barchinoyning yuziga birinchi marta tarsaki tushdi, u qattiq ranjidi. Ammo shu paytda uyiga kelgan mehmonlarga hech narsani sezdirmaslikka uringan va erini maqtagan Barchinoyning harakatlaridan O‘rolboy juda noqulay ahvolda qoladi. Bu haqiqiy o‘zbek ayolining mardligi va sadoqati edi. O‘sha kuni O‘rolboy birinchi marta ayoliga nisbatan ilqlik his etdi, bu bir paytlar sinfdosh qiziga bo‘lgani kabi kuchli bir hissiyot edi. Chekka qishloqlardagi bu kabi oilalar juda ko‘p, Tog‘ay Murod esa ushbu hikoyasida shulardan birini olib chiqdi, xolos.

Yozuvchining “Bobosi va nevara” hikoyasida Uch yoshli bola va nafaqaga chiqqan boboning bir kunlik hayoti ochib beriladi. Asarda bola ham, bobo ham juda beg‘ubor, beozor. Dunyoning butun tashvishlaridan holi. Umrining ko‘p yilini hukumat ishiga bag‘ishlagan va nafaqaga chiqishini kutib yashagan bobo uyda qolgach, uni hech kim izlamay qo‘yganidan xafa bo‘ladi. O‘ziga qanchalik qiyin deb bilsa, nevarasiga ham shunday deb o‘ylaydi. Hamma ishga ketgach, ular yolg‘iz ikkalasi qolishadi. Bolaning sodda va samimiy gaplari, noodatiy xatti-harakatlariga qarab, bobo hayotning go‘zalligini, hali qilinajak ishlari ko‘pligini o‘ylab quvonadi. Bobosining butun dilxiraliklari tarqalib ketadi.

“Ku-ku-ku” hikoyasi qahramoni tabiatga, qushlarga nisbatan alohida mehrga ega shaxs. U atrofdagi insonlarning bee‘tiborligi, beparvoligidan noliydi, u hech kim his qila olmaydigan

tuyg'ularni sezib, ularga go'yoki: «Birodar, to'xtang, ko'ryapsizmi Shishkinning qayinlarini: hayot go'zal, shunaqa...» «Birodar, eshityapsizmi, tog' chumchug'i sayrayapti. Bu ohangni Betxoven ham bilmasa kerak. Afsus, bu ohanglarning nomi yo'q. Eshiting, qushlarni eshiting...»<sup>1</sup>. Hikoya qahramoni hamma odamlarning o'zi kabi jonzotlarga mehrlil bo'lishini istaydi. Hattoki bir safar yaralangan musicha bolalarini ishxonasiga olib kelib, boqib katta qilaverdi, biroq direktorning birgina o'ylamay qilgan xatosi deb, barcha musichalar nobud bo'ldi. Yigit esa bu shafqatsizlikni ko'tara olmadi. Musichalarning mungli sayrashi ku-ku-kuni xayolan eshitgan holda yuzida tabassum bilan jon berdi. Tog'ay Murodning bu hikoyasida inson va qushlarni bog'lab turuvchi ko'rinmas bir rishta borligi, uni har qanday inson ham his qila olmasligi yoritib berilgan.

Tog'ay Murodning barcha hikoyalarida ikki xil holat taqqoslash, bog'lash kabi jaroyonlar aks etgan. Xuddi shunday "Kuzning bir kuni" asarida ham talaba yigit Rahimjonovning onasi vafot etishi va kuzning bir kunining oxiri bilan falsafiy qiyoslab yakunlaydi. Talabalarning paxta mavsumidagi hayoti, dotsent Obidovichning shahardan kelgan telegrammadan qattiq siqilishi va shu holatda ham Rahimjonovga yoqadigan, uni xursand qiladigan gap topishga urinishi haqiqiy jasorat edi. Bu nohush xabarni Rahimjonovga shunday chiroyli qilib yetkazib beradiki, xattoki, bola onasining vafoti haqidagi xabardan kuchli tas'irlanmaydi. Uni odatiy holatdek qabul qiladi. Shu yerda bir jumlagi e'tibor qaratsak: — Ada? Sizmisiz? Man, Akromjonman. A? Ha, keldi. Ja-a, vahima qilib yozibsiz, kasal desayiz ham bo'livurardi. A? Ha, mashina yuboring. Samarqand avtostantsiyasi bor-ku, o'shatga kelib tursin. Xo'p, xayr, xo'p...<sup>2</sup> E'tiborli jihati shundaki, domla shaharlik bolalar haqidagi fikri mutlaqo boshqacha edi. Tog'ay Murodning bu asarida ham boshqa hikoyalaridagi kabi insonlar xarakteridagi hech kimga o'xshamaydigan hislatlar, yangi-yangi munosabatlar, individual qarashlar aks ettirilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Hozirgi o'zbek adabiyotining milliy o'ziga xosligi. Toshkent, «Fan» 1984.
2. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, «O'qituvchi». 1999.
3. Murod T. «Otamdan qolgan dalalar. —T.: 1994. — 272 B.
4. "Men qaytib kelaman" (Tog'ay Murod zamondoshlari xotirasida)
5. Tog'ay Murod hikoyalari. <https://www.ziyouz.com/>

<sup>1</sup>Tog'ay Murod hikoyalari. <https://www.ziyouz.com/>

<sup>2</sup>Tog'ay Murod hikoyalari. <https://www.ziyouz.com/>